

**RASSOM SADULLA ABDULLAYEV IJODIDA TARIXIY MAVZULAR
TALQINI**



*Axatova Zohira Aktam qizi, Kamoliddin
Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti,
San'atshunoslik va muzeyshunoslik fakulteti, San'atshunoslik
(tasviriy va amaliy san'at) yo'nalishi 3 bosqich talabasi*
zohiraaxatova5@gmail.com
[+998901267420](tel:+998901267420)

Annotatsiya: Mazkur maqolada rassom Sadulla Abdullayevning tarixiy janrda ishlangan asarlarining tahlili berilgan. Unga ko'ra Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro Hirotda, Layli va Majnun, Saddi Iskandariy, Hayratul Abror, Alisher Navoiy Samarqandda asarlari qiyosiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Rang tasvir, Rassom, Sadulla Abdullayev, "Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro Hirotda", "Layli va Majnun", "Saddi Iskandariy", "Hayratul Abror", "Alisher Navoiy Samarqandda".

**ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ИСТОРИЧЕСКИХ ПРЕДМЕТОВ В ТВОРЧЕСТВЕ
ХУДОЖНИКА САДУЛЛЫ АБДУЛЛАЕВА**

*Ахатова Захира Актам дочь, студентка
Национального института живописи и дизайна имени
Камолiddина Бехзода, факультет искусствоведения и
музейоведения, искусствоведение (изобразительное и
прикладное искусство) 3 ступень*
zohiraaxatova5@gmail.com
[+998901267420](tel:+998901267420)

Аннотация: В данной статье представлен анализ творчества художника Садуллы Абдуллаева в историческом жанре. Согласно ему были сравнительно

проанализированы произведения Алишера Навои и Хусейна Бойгаро в Герате, Лейли и Меджнуна, Садди Искандари, Хайратула Аброра, Алишера Навои в Самарканде.

Ключевые слова: Цветное изображение, Художник, Садулла Абдуллаев, “Алишер Навои и Хусейн Бойгаро в Герате”, “Лейли и Меджнун”, “Садди Искандари”, “Хайратуль Аброр”, “Алишер Навои в Самарканде”.

INTERPRETATION OF HISTORICAL SUBJECTS IN THE CREATION OF RASSOM SADULLA ABDULLAYEV

*Akhatova Zahira Aktam daughter, a student of
the National Institute of Painting and Design named after
Kamoliddin Behzod, Faculty of Art Studies and Museum Studies,
Art Studies (fine and applied arts) 3rd stage
zohiraaxatova5@gmail.com
+998901267420*

Annotation: This article provides an analysis of the works of artist Sadulla Abdullayev in the historical genre. According to it, the works of Alisher Navoi and Husayn Boygaro in Herat, Layli and Majnun, Saddi Iskandari, Hayratul Abror, Alisher Navoi in Samarkand were comparatively analyzed.

Keywords: Color image, Artist, Sadulla Abdullayev, “Alisher Navoi and Husayn Boygaro in Heart”, “Layli and Majnun”, “Saddi Iskandari”, “Hayratul Abror”, “Alisher Navoi in Samarkand”.

KIRISH

Mustaqillik yillarda yurtimiz tarixini yozma manbalar asosida tadbiq etishga e'tibor kuchaydi, ajdodlarimiz tomonidan uzoq o'tmishda yaratilgan ma'daniy-ma'naviy merosni o'rganish va targ'ib qilish dolzarb masalalar qatoriga qo'yildi. Ilm-fan, madaniyat rivojiga ulkan hissa qo'shgan ajdodlarimizning unitilgan nomlari qayta tiklandi. Sobiq Ittifoq davrida ijodkorlar yagona sostialistik realizm oqimida ijod qilgan bo'lsalar, hozir ular ham ikkilanmasdan o'zlarini qiziqtirirayotgan avangardizm, romantizm, impresionizm, abstrakstionizm va boshqa qator oqimlarda va mavzularda yuksak badiiy saviyada asarlar yaratmoqdalar.

Rassom Sa'dulla Abdullayev uzoq yillik izlanishlardan keyin mustaqillik yillarida yana qaytadan ijodining ilk davrlarida, o'rta asr sharq badiiy merosi murojaatiga yana qaytadi va tarixiy mazvzuga oid turfa xil mavzulardan ajoyib o'ziga xos asarlar yarata boshlaydi. Abdullayev asrlaridagi obrazlar zohiran bir biridan ajralib turgandek tuyuladi. Lekin ularning “Qo'qon shoiralari” asaridagi kabi harakat emas,

balki o'z o'y hayollariga cho'mgan chuqur o'ychanlik, hayolan orzu ko'rinishlari birlashtirib turadi. Bu umumiylik alohida musiqiylik hususiyatiga ega. Uning asarlaridagi obrazlarning betakrorligi jussalar, ular holati, ishoralar, harakatlar kabilarni muqoyasa qilish asosida yuzaga keladi. Shuning uchun uning qalamidan hosil bo'layotgan har bir chiziqlar marom alohida ma'nodorlik kasb etadi. S.Abdullayev asarlarida chiziq hamisha o'z o'rnida qo'llaniladi. Inson gavdasini ifodalovchi chizgilar maromi rassom asarlarida ravonlik, ohang, mayinlik kasb etadi. Rassom ijodida Navoiy hayoti va faoliyati uning hayotiy haqiqati maqomini belgilab beradi. Rassom ana shu ijodi mobaynida tarixiy rangtasvir asarlari ustida qizg'in va ilhom bilan ijodiy ishlash jarayonida takomillashib boraveradi. Navoiyning o'lmas asarlari, hamda uning davlat ishlari bilan bog'liq syujetlari asosida rassom turli yillarda yaratgan "Layli va Majnun", "Saddi Iskandariy", "Hayratul Abror", "Alisher Navoiy va Husayn Bayqaro", "Samarqand bilan hayirlashuv", "Alisher Navoiy Samarqandda" kabi kartinalari shular jumlasidandir.

S.Abdullayev 1991-yili ishlagan "Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro Hirotda" asari XX asr XXI asr boshlarida o'zbek tasviriy san'atida tarixiy janrda yaratilgan eng yahshi kartinalardan biri hisoblanadi. Ushbu asar 1.50 ga 2 m kattalikda xolstga, moybo'yoqda ishlangan bo'lib uning bu asarda ilgari surgan g'oyasi, 1991 yilda Alisher Navoiy yili bo'lganligi sababli ushbu asarni ishlaydi. Kompozitsiya gorizontol holatda simvolizm oqimida ishlangan. Rassom obrazlarni ideal holatda berish uchun manerizmdan foydalangan. S. Abdullayev Navoiy va Husayn Boyqaroning xarakterini ochib berish uchun yorqin ranglardan Navoiyni yashil shoirona, Husayin Boyqaroni esa sariq rang ya'ni podshohlik ramzida bergan. Kartinaning yorqin va lokal holatda berilishi Dekorativizm yo'nalishida ishlanganligidan dalolat beradi. Hirotda bog' park madaniyati rivojlangan bo'lib, suniy hovuzlar, gullar uzoq yurtlardan olib kelingan noyob daraxtlar bo'lgan. "Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro" asarida ushbu holatni ijodkor yaqqol namoyon qila olgan. Kartina o'ng tomonida madrasa oldida, baland, binodan ham o'tadigan teraklar o'sib turibti. Madrasa tilla rang tusda, fasadni to'q ko'k naqshlar bilan bezatilgan. Aylana yoyli oynalar arkali qism ichida joylashgan. Alisher Navoiy va Husayn Bayqaro qomati daraxtlarning to'q yashil fo'nida yorqin siluetda. Madrasa eshiklaridan pastga qarab zinapoyalar hovuz tomon tushib ketadi. Hamma yoqdan yorqin nur sochilib, osmon tubsiz, musaffo, moviy rangda go'yo musiqa sadolari eshtilayotganday tasavvur uyg'otadi.

Sa'dulla Abdullayevning keyingi asari bu- xalqning sevimli shoiri so'fiy Xo'ja Ahmad Yassaviy portreti hisoblanadi. Kartina Yassaviy Buxorodagi Mo'g'oki Attor fo'nida tasvirlangan. Asarda yahshi fikirlar bilan, qo'lida tasbeh va Quron tutgan inson ishlangan. Ahmad Yassaviy umrining ohirigi yillarida ataylab uning iltimosiga binoan qurilgan yer osti xonasiga kirib sham yorug'ida yashadi va ijod qildi. Musavvir shu yillarda (1991-1992) Alisher Navoiy hayoti bilan bog'liq bo'lgan "Alisher Navoiy

Samarqandd” (1992), “Samarqand bilan hayrlashuv” (1991), asarlarini ham yaratdi.

Musavvirning Alisher Navoiy hayoti bilan bog'liq kompozitsiyalaridan yana bir 1995-yilda yaratildi. Bu asar diptix ko'rinishida bo'lib uni rassom “O'zbek Renesansi, Navoiy va Jomiy” deb nomlaydi. Tarix adabiyotlarida Jomiy va Navoiy o'rtasida mustahkam do'stlik va ustoz-shogirtlik an'analari bo'lganligi haqida ko'plab ma'lumotlar mavjud. Jomiy Alisher Navoiy bilan birinchi martta Temuriy Abu Said xukumronligi davrida Xiyobon mavzesida hamma qatori ko'rishgan. Shunda Jomiy o'zining bir risolasini taqdim qilgan. 1476-1477 yillarda Navoiy ham Jomiy o'ziga pir, deb taniydi. Garchi Jomiyning Navoiydan yoshi ancha ulug', rasman pir hisoblansa ham, mohiyatan ular chin do'st va hamkor bo'lganlar. Jomiy o'zining (“Nafaxtoluns” “Bahoriston”) bir qancha asarlarida Navoiyni, Navoiy ham o'z asarlarida (“Xamsat ul-muttahayyirin”) va boshqa asarlarida hurmat bilan tilga oladi.

Abdullayevning yuksak obrazlari, mahoratli shakllarga bo'lgan intilishini mavzu va obrazlarni tanlash qamrovi bilan bog'liq bo'ladi. Rassom o'z navbatida Amir Temur va Temuriylar davriga murojat qiladi va “O'zbek uyg'onish davri”. “Amir Temur fotixa beryapti”, “Boburiylar Hindistonda” singari triptix mahoratli-epik asarlarni yaratdi. Rassom “O'zbek Renesansi” nomli katta triptix 1997-1999 yillar davomida yaratadi. Asar ijodkorning uzoq yillik izlanishlar natijasida yuzga kelgan maskur janrdagi mukammal asarlardan bo'lib, birinchi polotnoda rassom Amir Temurning g'alabali onlarining umumiy bir bayramona kayfiyatda yaratgan. Tarixiy manbalarda bu haqida shunday keltiriladi “Amir Temur Movaraunnaxrda ilgaridan mavjud an'analarni davom ettirgan holda, o'zining har bir g'alabasini, bayram, to'y bilan nishonlagan, har bir aziz mehmonni ziyofat va bazm bilan siylagan” Rassomni tortgan jihat ham aynan shu bo'lib ijodkor Amir Temurning g'alabadan keyin yurtiga qaytib kelgan kezidagi lahzani ochib berishga urindi. Amir Temur o'zining harbiy lashkari bilan karnay-surnay sadolari ostida mardona shaharga kirib kelmoqda, uning oldida ikki karnaychi otda karnay chalib kelmoqda, u esa o'rtada o'zining oq kulrang otida bayramona libosda, uning oldiga shu elning nuroniylari qo'llarini duoga ochib kutib olayotganlari ularga nigohini tikkan, uning yonida va ortida yaqin ishongan insonlari, yordamchilari va nayzalar va bayroq ko'targan otliq harbiylarining bir qismi tasvirlangan. Rassom har detalga alohida e'tibor berganligini “oq bayroq” tasviridan bilishimiz mumkin. Chunki Amir Temur janglarida bayroqlar tili alohida ma'no anglatgan. Lashkar qo'lidagi baland ko'tarilgan uchburchak ko'rinishidagi ko'rinishidagi, uchta aylana tasvirlangan bayroq uning g'alabasi ramzi hisoblanadi. Amir Temurning bayrog'i saqlanib qolmagan. Ammo bu hususda o'sha davr solnomalarida, yozma manbalarida ayrim ma'lumotlar qayd qilingan. Klavihoni qayd etishicha, “Temurning tug'rosida uchta aylana tasvirlangan bo'lib, uning dunyoning uch qismi hukumdori ekanligini bildirgan.” Bu bilan rassom bir element bilan Sohibqironning naqadar ulug' jangchi bo'lganiga urg'u bera olgan. Kompozitsiya

tuzilishi jihatidan O'rta asr Yevropa renessansini ham eslatib yuboradi. Lekin asrning umumiy ruhiyatida sharqqa hos bo'lgan kolorit va ruhiyatni his qilsa bo'ladi. Asarning yana bir jihatini ham takidlash lozimki kartina orqali buyuk trixning haqiqiy ko'zgusini tomoshabin yaqqol his qiladi. Ikkinchi kartinada rassom Amir Temur me'morchiligiga qaratgan e'tiboriga urg'u bergan. Buyuk Temur davlatining poytaxti Samarqand uning fikricha, yer yuzining eng go'zal shahriga aylanishi lozim edi. Bu maqsadga erishish uchun esa buyuk hukumdor hamma imkoniyatlarini ishga soldi. Samarqand uzoq yillar mobaynida dunyoning eng ilhombaxsh memoriy manbai, Old va O'rta Osiyo madaniyat va san'atining tub markazi bo'lib qoldi. Bu yerda bosib olingan mamlakatlardan yetakchi me'mor va quruvchi guruhlarini keltirilishi dunyo memorligida sifat jihatidan yangi yo'nalishning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Kartinada rassom Amir Temur 1399-yil 11-mayda Hindistonga bo'lgan yurishidan qaytgach birinchi toshini qo'ydirgan Temur jome masjidi va Saroymulk xonim madrasalari qurilishi vaqtida tasvirlangan. Hukumdor butun musulmon Sharqi masjidlari sifatidan o'rin oluvchi masjid qurishni maqsad qilib qo'ygan. U yirik hajmdagi bu binoni qurilishiga olib kelinga o'rta Osiyolik, Eronlik, Hindistonlik me'morlar davrasida ularga o'z ko'rsatmalarini bermoqda Barcha hukumdor so'zlarini diqqat bilan eshitmoqda. Shu bilan bir qatorda qurilish davom etayotganini biz kompozitsiya orqa planidagi qurilishlar tasviridan bilishimiz mumkin.

Temuriylar Samarqandda bosh maydon Ulug'bek hukumronligi davrida shakllana boshladi. U Amir Temur o'limidan keyin Temuriyzodalar taxt uchun kurashni kuchaytirib ilm-fan rivoji, madaniyat, san'atga e'tibor susaydi. Mirzo Ulug'bek esa ana shunday qaltis bir davrda ham bobosi boshlab ketgan buyuk ishlarni davom ettirishga, ayniqsa ilm-fan rivojiga alohida e'tibor qaratdi. Rassom shuning uchun ham uning obrazani triptixning uchinchi qismida tasvirladi. Kartinada Mirzo Ulug'bek 1424-1428 yillarda Samarqandda o'z atrofida to'plangan olimlarning bevosita ishtroki bilan shahar yaqinidagi Obirahmat bo'yida qurdirgan rasadxonasidan ikki kishi bilan chiqib kelayotgan holatda ochib berilgan. Ulug'bek suhbatga qattiq kirishganidan qo'llarini tepaga ishora qilib so'zlayotganidan, uning sevimli mavzusi yulduzlar ilmi haqida gap ketayotganini his qilish mumkin. Aslida Ulug'bek shohona libosda tasvirlangan bo'lsa ham rassom uni ko'proq olim sifatida ifoda etishga uringanligini his qilish mumkin. Uning yonidagi hamrohlarining biri olim u qo'lida bir nechta kitoblarni tutgancha Mirzo Ulug'bekning so'zlariga quloq solmoqda, huddi u singari uning yonida yosh tolibi ilm tasvirlangan. Rassom qahramonlarni tasvirlashda hech qanday ortiqcha bo'rttirishlar qilmasdan, ularni bor bo'yicha hayotiy aks ettirishga uringan. Kartinaning umumiy mohiyatini qahramonlar ortidagi rasadxona tasviri hosil qiladi. Mazkur rasadxona ko'rinishi rassomning tarixiy manbalarga asoslangan ma'lumotlar asosida yaratilgan. Chunki bino bizning davrimizgacha juda kam qismi yetib kelgan. Umuman olganda Sa'dulla Abdullayev bu polotnoni

yaratishdan oldin uning hayotiy va haqqoniy chiqishiga katta ahamiyat qaratgan holda, ko'plab materiallar bilan tanishib chiqib davrning haqiqiy qiyofasini o'z ongida yaratib bo'lganidan keyingina uni anashu ko'rinishda polotnolarga tushirgan.

Musavvirning "Boburiylar Hindistonda" (2005) asari aynan shu tarixiy hodisaga bog'liq bo'lib unda Bobur Hindistonga bosqinchi sifatida emas aksincha birinchi navbatda, davlatchilik siyosatini mustaxkamlash, mayda mayda feodal, rojaliklarga bo'linib ketgan yurti yaxlit davlatga aylantirish, o'lka viloyatlarini markaziy saltanatga birlashtirishga intildi va bu borada ulkan natijalarga erishdi. Shu bilan bir qatorda davlat arbobi va ko'p vaqti jangu-jadallarda o'tgan sarkarda sifatida ijtimoiy faoliyatining eng qizg'in davrida ham, shaxsiy hayoti va davlati nihoyatda murakkab va hatarli sharoitida qolgan chog'larida ham Bobur ijodiy ishga vaqt topa bilgan, ilm, san'at va ijod ahlini o'z atrofiga to'plab, homiylik qilgan, ularni rag'batlantirgan, Triptix markazida musavvir Boburni san'at va marifat ahli bilan sokin ziyofat o'tkazayotgan chog'ida tasvirlagan. "Boburnoma" miniatyuralarida Bobur sharafiga bog'larda uyushtirilgan ziyofatlar haqida ko'plab ma'lumotlar mavjud. Ana shunday bog'lardan biri "Bog'i jahonoro" bo'lgan. Rassom ham Mirzo Bobur sharafiga uyushtirilgan mana shunday ziyofatni tasvirlaydi. Davrada Mirzo Bobur markazda sharqona libosda olimlar, musiqachilar va uning yaqin insonlari davrasida tasvirlangan. Miniatyuralar tarixda asosiy qahramon – Bobur va ayonlariga ma'lum o'rinlar ajratilgan bo'lib, ikkinchi darajali shaxslar, mulozimlar shakllangan odob axloqqa binoan o'z o'rinlariga ega. Kishilar va qo'shimcha tasvirlar umumiy tarzda o'z o'rnini, chiziqlarga ma'lum, uyg'unlikda joylashganini ko'rish mumkin. Boburning markazda o'tirishi ham miniatyura an'analari hos bo'lib, unga ko'ra uni o'ziga xos kiyimi, bezaklari, atrofdagi ashyolarning ham shohona yoki shohlar shohlar sharoitiga mos qilib tasvirlanishi talab qilgani ma'lum bo'ladi. Ijodkor aynan shu jihatlari hisobga olgan holda Boburni shohlarga xos ko'rinishida tasvirlangan. U boshiga qimmatbaho bezak taqilgan o'rtacha hajmdagi dastor sallasida, egniga yengsiz uzun chopon ichidan uzun qizil rangli libos kiygan. Bobur oddiyroq ko'rinishdagi taxtida boshqalardan balandroqta o'tiribti. Qolgan qahramonlar ham sharqona kiyinish uslubida ifodalangan. Ularning hech birida hind madaniyatiga hos libosni ko'rmaymiz. Bunga sabab Bobur atrofiga Movrunnaxrdan kelgan ziyolilarni yiqqanidadir.

Triptix markazidan chap tomonda Boburiylar sulolasining so'nggi vakillaridan bo'lgan Shohjahon uning qizi Jahon oro begim tasvirlangan. Bunga sabab Shohjahon Boburiylar yaratgan katta bir davlatni parchalanib ketayotgan bir davrda uni qaytadan tiklashga birlashtirishga haarakat qiladi. Shu bilan bir qatorda u san'at va madaniyat homiysi sifatida ham boshqa shahzodalardan farq qiladi. Jahon oro begim Shohjahonning eng suyuqli qizi bo'lgan onasi Mumtoz Mahal olamdan o'tganidan so'ng shoh oilasini boshqarish uning zimmasiga tushadi. U shuningdek salatanat ishlarini boshqarish, ichki va tashqi siyosat, diplomatiya masalalarida otasiga foydali

maslahatlar bilan yordamlashar edi. Unda bobokaloni Boburshohga o'hash me'morchilik va obodonchilik ishlariga havas katta edi. Ijodkor ikki qahramonni garchi tarixiy tafovut mavjud bo'lsa ham go'yo markazdagi voqelikni ishtirokchisi kabi tasvirlaydi. Shohjahon hind uslubiga hos libosda qizidan sal oldinda markazga nigoh tashlamoqda, Jahon oro begim qizil nafis libosda qo'llarini ko'ksiga qo'yib, odob saqlamoqda. Ijodkor bu obrazlarni tarixiy ahamiyatiga ko'ra birga tasvirlaydu, ularning har biri bobakaloni qurib ketgan yo'ldan borgan balki, shuning uchun ham ularning tasviri cheksizlikka tutashgan ramziy yo'lak ustida aks ettirilgan. Markazdan o'ng tomonida Zebuniso begim yonida shogirtlari bilan tasvirlangan. Zebuniso qo'lini qovushtirganicha yonidagi shogirtini sham yorug'ida zo'r berib kitobdan nimalarnidir o'qiyotganini tinglab turibti. Tarixda Zebuniso begim marifatli ayol sifatida namoyon bo'lgan.

Triptixning uchchala qismi ham rassom tomonidan mohirona bir biriga bog'langan. Bu bog'liqlik orqali Boburiylar sulolasining umumiy bir ko'rinishini yarata olgan. Markazdagi Bobur obrazani ikki yonidagi uning avlodlarining yorqin siymolari orqali, Boburiylar Hindistonda nafaqat bir davlatni shakllantirganini balki katta bir madaniyatni ham barpo qilinganligiga ishora qilmoqda va ayni damda bu tarixiy fakti aynan shunday usulda bir qarashda oddiy hodisa, ammo ichida chuqur asosga tayangan holda ifoda qilgan.

Rassom 2007-yilda Temuriy malikalarga bag'ishlangan "Zebuniso shogirdlari bilan" nomli kartinani yaratadi. Asosiy qahramon Zebuniso begim Zahiriddin Muhammad Boburning avlodlaridan Abu Zafar Muhiyiddin Muhammad Avrangizep Olamgirning qizi bo'lib u melodiylar 1639 fevral oyida Dehlida tavallud topgan. Zebuniso begim o'z zamonasining fozila ayollaridan Hafiza Mariyam. Bonu qo'lida savod chiqargan. Otasi Zebunisoning shoiralik iste'dodini payqab, unga o'z davrining yetuk olimlaridan Mullo Muhammad Ashraf Isfahoniy va Mullo Jovonni muallim qilib tayinladi. Zebuniso begim zabardast shoira, yetuk olima, usta tanbur chertuvchi sozanda va mohir xattot bo'lib yetishadi. Arab-fors tillarining sarfu nahm (morfologiya va sintaksis) ini, fiqh (qonunshunoslik) mantiq, tarix, falsafa fanlarini puxta o'zlashtiradi. U nastaliq, nasx va shikasta xatlarini zo'r mahorat bilan bitgan Zebuniso begim olimlarga, shoirlarga va san'at ahillariga homiylik ko'rsatib, ularga maosh to'lab turgan. "Olam Islom" tazkirasidagi "Zebuniso begim otasi hukumdorlik bilan qozonmagan shuhratni ilm va odob bilan qozongan" jummalarni fikrimiz tasdiqlaydi.

Zebuniso begim bir qator shogirtpechalarni ilm-marifat, odob va g'azaliyot bobida tarbiyalab, kamolga yetkazgan, Sharqning mashhur shoiri Mirzo ABduqodir Bedil o'z qizini Zebuniso begim tarbiyasiga topshirgan. Natijada u shoiralik darajasigacha yetishgan. Ijodkor qahramonning aynan shu jihatiga e'tibor qaratgan. Zebuniso begim to'rtta shogirdi bilan bog'da ochiq havoda erkin muloqat qilib o'tirgan holda ifodalangan. Uning egnida binafsha rang uzun libos, bo'ynida nafis ishlangan

taqinchoq, qo'lida esa endigina shogirtlariga o'qib bergan kitobi hiyol yopib tasvirlangan. U hali yosh, hayotni endi anglab yetayotgan shogirdlarining fikr-mulohazalarini sabr bilan tinglamoqda. Shogirt qizlar har hil vaziyatlarda, turli psixologik xarakterda; bir qo'li bilan yerda yotgan tanburni sekin tutganicha daraxtga suyanib o'tribdi, uning yonida tik turgan dugonasi bir qo'li bilan daraxtni, ikkinchi qo'lida kitobni ushlab ustoziga nazar tashlab turibdi, Zebuniso begimning chap tomonidagi shogirtlari esa jimgina odobsaqlamoqda. Rassom orqa planga Dehlidagi Boburiylar qurgan saroyning tasvirini aks ettirgan. Bu orqali bu saltanatda nafaqat erkaklar balki ayollar ham o'ziga hos obro', e'tibor va erkinlikda yashaganliklari aks ettirilgan. Qahramonlar orasida aniq bir suhbat, bahs kechmayotgan bo'lsa ham ularning hatti harakatidan tomoshabin sharqona bir ruhiyatni his qiladi.

XULOSA

Sadulla Abdullayevning tarixiy janrda ishlagan asarlari O'zbekiston rangtasvirida o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lib, "Qo'qon shoiralari", "Layli va Majnun", "Saddi Iskandariy", "Hayratul Abror", "Alisher Navoiy va Husayn Bayqaro", "Boburiylar Hindistonda" kabi nodir asarlari Temuriylar, va buyuk bobo kalonlarimiz xotiralarini abdiylashtirishga xizmat qiladi. Uning asarlaridagi Manerizm badiiy vosita sifatida obrazlarning xarakterini ochib beradi. Shunday ekan uning ijodiy merosi milliy qadriyatlarni saqlab qolish va rivojlantirishga, shuningdek o'zbek san'atining xalqaro maydonda tan olinishi uchun muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kultashev, B., Sadikova, S., & Kultasheva, N. (2021). Development of portrait of Uzbekistan during the early 20th century. *Melbrun. Australia. Swinburne University of Technology.*–2021.
2. Алимкулова Д. 1920–1930-йиллар рангтасвири Ўзбекистон тасвирий санъатининг ривожланиш жараёни кесимида// Санъатшунослик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – 2020.
3. Лаковская В Л. Послевоенная живопись Узбекистана. Ташкент, 1991 С 88.
4. Юнусхужаева Азиза Саъдулла Абдуллаев ижодида замон талқини. Тошкент. 2022 С 30
5. Khayitboboieva KPA Study Of The Problems Of Tradition And Innovation In Modern Uzbek Folk Art The American Journal of Social Science and Education Innovations -2021-T3-№ 11-C 14-20
6. Hakimov A.A, Xayitboyeva X.P. Badiiy tanqid tarixi va nazariyasi. O'quv q o'llanma/ T.:“D iM al” nashriyoti - 2024. -148bet. <https://lib.cspu.uz/index.php?newsid=11669>
7. Bokiyeveva Guzali Ilhomovna. “O'zbekiston rangtasvirida Sa'dulla Abdullayev ijodining o'rni”. Journal of international scientific research Volume 2, Issue 1, January, 2025